

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jurayev T.V., Komilova Sh. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik tamoyillari. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2024.-116 b.
2. Dushabayev A.M. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. 2024.-56b
3. Akilov B.D. Ta’limda raqamli texnologiyalarini qo’llash ahamiyati. 2023.-203b
4. Karimov T.X. Raqamli axborot texnologiyalarining ta’limda foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati. 2024.-73b
5. Karimov Sh.F. Umumiy o’rta ta’limi tizimini raqamlashtirish islohoti davrida pedagog kadrlarning raqamli ko’nikmalarini rivojlantirish masalasi. 2024.-89b
6. Yoldoshmaxmudov Sh.X. Ta’limda raqamli iqtisodiyot: istiqbol va rivojlanish istiqbollari.2022.-26b
7. Xummamatova K.X, Xolimmatova M.A. Ma’ruza mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanish. Raqamli texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etishning zamonaviy holati va istiqbollari, 2023. -186b
8. Ubaydullayev S.A, Shomirzayev M.Raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarning hunarmandchilik kompetensiyalarini rivojlantirish didaktik imkoniyatlari.” 2023. -194b
9. Sherzod Karimov. “Ta’limni raqamlashtirishga oid islohotlarida o‘qituvchining raqamli kompetensiya tushunchasi.” 2023. -304b
10. Ziyodov N. “Ta’lim texnologiyalari: innovatsion yondashuvlar.” Toshkent, 2020. -254b.

5. INGLIZ TILIDA QIYMAT, JISMONIY XUSUSIYAT, INSON HATTI-HARAKATLARINI IFODALOVCHI SIFATLAR

Mayliyeva Gulmira Bahramovna

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilshunosligida mavjud bo‘lgan sifatning 13 ta semantik guruhlaridan qiymatni, jimoniy xususiyatni va inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar borasida so‘z yuritilib, ularning o‘zbek

tilidagi sifatning 9 ta semantik guruhlari bilan o‘xshash va farqli jihatlari aniqlab beriladi.

Kalit so‘zlar: sifat, semantik guruhlar, qiymatni ifodalovchi sifatlar, jimoniy xususiyatni ifodalovchi sifatlar, inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar.

ПРИЛАГАТЕЛЬНЫЕ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЦЕННОСТЬ, ФИЗИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ, ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Гулмира Бахромовна Майлиева

студент Ургенчского государственного университета

Аннотация: в данной статье рассматриваются 13 семантических групп прилагательных, существующих в английской лингвистике, о прилагательных, выражающих значение, физические характеристики и действия человека, а также определяются их сходства и различия с 9 семантическими группами прилагательных узбекского языка.

Ключевые слова: прилагательное, семантические группы; прилагательные, выражающие значение; прилагательные, выражающие физические характеристики; прилагательные, выражающие поведение человека.

ADJECTIVES EXPRESSING VALUE, PHYSICAL CHARACTERISTICS, HUMAN BEHAVIOR IN ENGLISH

Gulmira Bakhromovna Mailieva

Independent student of Urgench State University

Abstract: in this article, the 13 semantic groups of adjectives existing in English linguistics are discussed about adjectives expressing value, social characteristics and human actions, and their similarities and differences with the 9 semantic groups of adjectives in Uzbek language are determined.

Key words: adjective, semantic groups, adjectives expressing value, adjectives expressing physical characteristics, adjectives expressing human propensity.

Leksik birliklar semantikasini tadqiq qilishga bo‘lgan ilmiy qiziqishning ortib borayotganligi esa bugungi kunda tilning semantik tuzilishini gradual jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib bermoqda. Sistem leksikologiyaning taraqqiy etishi asnosida leksik-semantik guruhlar tarkibida graduonimiya, giponimiya kabi tushunchalar paydo bo‘la boshladi.

Sifat asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiradi. Belgi tushunchasi o‘z ichiga xarakter-xususiyat, rang-tus, maza-ta’m, shakl, vazn-o‘lchov kabilarni qamrab oladi. Bular sifatning ma’noviy guruhlari hisoblanib, ular ham ma’lum bir semantik va grammatik xususiyatlarga asoslanadi.

Shunday sifatning ma’noviy guruhlaridan biri *xususiyat* sifatlaridir. Xarakter-xususiyat sifatlari insonning turli-xil belgi xususiyatlarini, ya’ni uning axloqiy, intellektual, ijtimoiy belgilarini, shaxsiy xarakterlarini, narsa va mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko‘p qo‘llanadigan so‘zlardir. Bunday sifatlar ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo‘lishi mumkin:

a) Insonning xarakter-xususiyatiga xos ijobiy sifatlar: *muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjur, ziyrak, mo’min, sodiq, mohir, pok, sipo, o’ktam, asl, quvonch, ozoda, sof, yaxshi, dadil, xushmuomala, rostgo'y, mehribon* va boshqalar.

b) kishilarga xos salbiy xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar ko‘pincha ijobiy xususiyatni bildiruvchi sifatlarga antonim bo‘ladi: *zolim, nokas, toshbag‘ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaham, g‘ayir, tannoz, takabbur, o‘jar, xudbin* va boshqalar.

Kishilarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlarining gap-so‘zini, o‘yniyatini yoki ta`na a`zolarini sifatlash orqali ham bildiriladi.

Xarakter-xususiyat sifatlarining yana shundaylari borki, ularda ijobiy va salbiylik yaqqol ko‘rinib turmaydi. Matndan ularning ma’nosini anglab olish mumkin. Masalan: *dovdir, loqayd, sho‘x, mahmadona, sinchkov, mag‘rur,*

indamas, o'jar, shaddod, to'pori va boshqalar. Indamas odam birikmasida indamas sifati salbiy munosabat ifodasi uchun qo'llangan bo'lsa, "U tabiatan indamas, odamovi bo'lsa ham, ko'pgina zulm va shafqatsizliklarga indamay qo'ya qolardi" misolida esa ijobiy semasini namoyon qilgan.

Predmet (narsa, hayvon, jonivor) holati, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar: *fayzli, dabdabali, tashvishli, yovvoyi, sun'iy, tabiiy, qimmat, arzon* va boshqalar. Kishi va predmet xususiyatlari uchun birdek qo'llanaveradigan sifatlar: *chiroyli, xunuk, katta, zo'r, chidamlı* va hokazolar.

O'zbek tilida sifatning 9 ta semantik guruhi mavjud bo'lib, ular xarakter-xususiyatni, holatni, hajmni, rangni, maza-ta'mni, hidni, shaklni, o'rinni va paytni (Sodiqova M., 1974; Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar, 2009) ifodalovchi semantik guruhlar hisoblanadi. Ushbu semantik guruhlar asliy sifatlarning lug'aviy ma'nosini ifodalovchi guruhlar bo'lib, turli davrlarda turlicha tasniflangan va boshqa tillarda ham turli tasniflashga ega sanaladi.

Ingliz tilshunosligida ham sifatning semantik guruhlari o'zbek tilidagi semantik guruhlarga o'xshash va farqli jihatlari bilan bir qancha olimlar tomonidan talqin qilingan. Dastlab Diksonning tasnifini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi, chunki unda sifatning barcha leksik ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan semantik guruhlar o'z ifodasini topadi. Dikson sifatni dastlab 7 ta, keyinchalik 11 ta va eng oxirgi tasnifiga ko'ra 13 ta ma'noviy guruhlarga ajratadi: value-qiyamatni, dimension-hajmni, color-rangni, physical property-jismoniy xususiyatni, human propensity-inson hatti-harakatlarini, age-yoshni, speed-tezlikni, qualification-sifat, xususiyatni, quantification-miqdorni, similarity-o'xshashlikni, position-o'rin-joyni, cardinal numbers-sanoq sonlarni hamda volition-iroda, inson moyilligini ifodalovchi sifat semantik guruhlari hisoblanadi (Dixon, 1982, 1991, 2004).

Yuqoridagi semantik guruhlardan eng keng tarqalgan guruhlar qiymatni, jismoniy xususiyatni, inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar sanaladi. Ushbu guruhlar o‘zbek tilida xarakter-xususiyatni, holatni bildiruvchi sifat guruhlariga mos keladi. Ular shaxs va narsaning tashqi, ruhiy, iqtisodiy holat, xususiyatini ifodalaydi.

Ushbu ma’noviy guruhlarni o‘rganish jarayonida aniqlangan eng muhim jihat shundan iboratki, sifatning ko‘p ma’noli hamda matnda turli semantik jihatlarga ega ekanligini inobatga olib, matnda ifodalab kelgan ma’nosiga ko‘ra sifat bir vaqtning o‘zida bir qancha semantik guruhlarga tegishli bo‘lishji mumkin ekan. Masalan, maza-ta’mni ifodalovchi *delicious-mazali* sifati matnda value-qiyatni ifodalab keluvchi sifat semantik guruhiga taaluqli bo‘lishi mumkinligi aniqlangan: *you’re so delicious-sen biram yoqimtoysan*.

O‘zbek tilida ham huddi shu kabi sifatlar tahlil qilinib, ular biror ma’noviy guruhga mansub bo‘lsa-da, matnda ifodalab kelgan ma’nosiga ko‘ra boshqa semantik guruhga taaluqli ekanligi aniqlandi: *shirin hayol, baland ovoz, oppoq orzu*. Bu jihat sifatning funksional-semantik xususiyatlaridan sanalib, matnda ifodalab kelgan vazifasiga ko‘ra ma’noviy guruhlarga tegishli bo‘lishi mumkin sanaladi.

Sifatning yana bir muhim funksional-semantik jihat shundan iboratki, sifat matnda otlashgan va otlashmagan ko‘rinishlarda qo‘llaniladi. Sifat otlashib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi, kesim vazifasida, qaratqich-aniqlovchi, undalma hamda ravish ko‘rinishlarida matnda qo‘llaniladi. Otlashgan sifatlar otning grammatik shaklini olib, vazifa jihatdan ot so‘z turkumi sifatida qaraladi, biroq lug‘aviy ma’nosi sifatni ifodalab keladi. Shuni ta’kidlash kerakki, otlashgan sifatlar o‘zi birikib kelgan so‘z bilan birga emas, balki mustaqil ravishda ot so‘z turkumini ifodalab uni nomlab keladi (Abdurahmonov G., 1950, 2.), bu o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham uchraydigan jarayon hisoblanadi: yaxshi-oshini yer, yomon-boshini. *The rich are always happy and positive*. Bu kabi misollarni mashhur amerikalik

yozuvchi Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” (T.Drayzer. 2019) asaridan olib tahlil qilib chiqamiz: 1. *U o‘zining jur’atidan qo‘rqib, ozodlikka chiqqanidan suyunib, joyida u yog‘idan bu yog‘iga ag‘darilib yotarkan, birorta ish topa olarmikinman, Drue nima qilarkin, deb o‘ylardi.* Ushbu misolda *ozodlikka* so‘zi *-lik* qo‘shimchasi yordamida otlashib, gapda to‘ldiruvchi vazifasida kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda chet tillarni o‘qitish sohasida ham ilg‘or texnologiyalar mavjud bo‘lib, dars mashg‘ulotlari davomida ularni qo‘llash o‘quv jarayonini samaradorligini oshirib beradi. Asosan til o‘rgatuvchi saytlardan ko‘proq foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib boramiz, masalan, kahoot, blooket, kitoblarning online ko‘rinishida flipbuilder sayti ham ancha samara bermoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, ingliz tilida sifat semantik guruhlaridan eng keng tarqalgan guruhlar qiymatni, jismoniy xususiyatni, inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar sanaladi. Ushbu guruhlar o‘zbek tilida xarakter-xususiyatni, holatni bildiruvchi sifat guruhlariga mos keladi. Ushbu sifatlar matnni jozibali va keng mazmunga ega bo‘lishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдурахмонов Г. Субстантивированные прилагательные в современном узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Самарканд, 1950. – С.2-3.
2. Dixon R.M.W., Alexandra Y. Aikhenvald. Adjective classes, a cross-linguistic typology. – Oxford: Oxford university press, 2004.
3. Dixon R.M.W. Where have all adjectives gone? And other essays in semantics and syntax. – Berlin: Mouton, 1982.
4. Dixon R.M.W. A semantic approach to English grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
5. Teodor Drayzer. Baxtiqaro Kerri. – Toshkent: Yangi nashr, 2019.
6. Theodore Dreiser. Sister Carrie. – United States: Doubleday, 1900.

7. Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Т.: Фан, 1974.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbanova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.

6. TA’LIM TARBIYA JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING O‘RNI VA AHAMIYATI

Raximova Ruxsora Haydar qizi

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tarbiya jarayonida didaktik o‘yinlar va inovatsion texnologiyalar nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki ta’limning keyingi bosqichlarida ham o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ishtyoqlari rivojiga katta turtki bo‘lishi hamda ayniqsa, qiyin o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o‘yinlar samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinflar uchun yaratilayotgan o‘quv qo‘llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko‘zga tashlanib turishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, didaktik o‘yin, boshlang‘ich sinf, metod, tafakkur, mustaqil topshiriqlar, innovatsiya, rivojlantirish, innovatsiya, rivojlantirish.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОДИНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Рахимова Рухсоры дочь Хайдара.

Соискатель Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье в образовательном процессе дидактические игры и инновационные технологии являются большим стимулом для развития энтузиазма учащихся не только в начальных классах, но и на более поздних этапах обучения, а также оказывают эффективное воздействие на повышение познавательных способностей особо труднообучаемых учащихся. Следует